

## Ochiq muloqotlar mohiyati

2018 yil 25 dekabr kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 20 dekabrda 87-02-3845 - sonli topshirig'i ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashining institut jamoasi, doktorantlar va magistrantlar bilan ochiq muloqoti o'tkazildi.

Tadbirda institut yoshlar bilan ishlash prorektori Q. Shavazov, O'zFA akademigi Q. Allayev, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vaziri boshqarma boshlig'i O'. Ismailov, Toshkent shahridagi Inha universiteti rektori M. Djalalov, Toshkent shahridagi Puchon universiteti rektori Li Dong Vuk, bo'lim boshlig'i Z. Haydarov, hamda institut professor-o'qituvchilari, doktorantlar va magistrantlar ishtirok etdi.

Ma'ruzachilar tomonidan savolnoma asosida institut jamoasi va talabalariga yaratilayotgan shart-sharoitlar, mavjud muammo va kamchiliklar borasida suhbat olib borildi. Ochiq muloqot tarzida o'tgan davra suhbat yakunida institut professor-o'qituvchilar jamoasi, doktorantlar hamda magistrantlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi hamda ma'ruzachilar tomonidan bildirib o'tilgan fikr-mulohalar va savolnoma bo'yicha o'z taklif va mulohazalarini bildirib o'tishdi.



**Yoshlar va talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Z. Haydarov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Raximboy Jumaniyozov**